

## Toshkent viloyatida demografik holat

2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

### I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026- yilning 1- aprel holatiga Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni **3 174,6** ming kishini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan **1,7** % ga ko'paygan.

2026- yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **14 923** nafarni, vafot etganlar **4 226** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **10 697** kishiga teng bo'ldi.

Ko'chib kelganlar soni **11 486** kishini va ko'chib ketganlar soni **8 278** kishini, qayd etilgan nikohlar **2 780** birlikni, nikohdan ajralishlar **1 270** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 174 576	kishi
Tug'ilganlar soni	14 923	kishi
Vafot etganlar soni	4 226	kishi
Ko'chib kelganlar	11 486	kishi
Ko'chib ketganlar	8 278	kishi
Nikohlar soni	2 780	birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1 270	birlik

## II. Doimiy aholi soni

Toshkent viloyatida doimiy aholi soni 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra **3 174,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **53 045** kishiga yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 580,6** ming kishi (*jami aholi soniga nisbatan 49,8 %*), qishloq joylarda esa **1 594** kishi (*50,2 %*) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 581,4** kishini (*49,8 %*) erkaklar esa **1 593,2** kishini (*50,2 %*) tashkil etmoqda.


### Doimiy aholi soni (1- aprel holatiga, ming kishi)

	2025- yil	2026- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 121,5</b>	<b>3 174,6</b>	<b>101,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	57,8	59,0	102,1
Olmalik	149,5	151,5	101,3
Angren	186,2	188,9	101,5
Bekobod	106,4	107,5	101,0
Ohangaron	42,3	42,8	101,2
Chirchiq	176,1	178,8	101,5
Yangiyo'l	87,6	89,4	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	114,4	115,9	101,3
Ohangaron	113,4	115,1	101,5
Bekobod	168,9	171,6	101,6
Bo'stonliq	178,5	179,3	100,4
Bo'ka	137,2	139,2	101,5
Quy Chirchiq	118,1	119,9	101,5
Zangiota	176,8	182,1	103,0
Yuqori Chirchiq	142,3	144,6	101,6
Qibray	179,4	182,8	101,9
Parkent	182,8	185,8	101,6
Piskent	103,7	105,3	101,5
O'rta Chirchiq	141,1	143,7	101,8
Chinoz	148,7	151,0	101,5
Yangiyo'l	204,8	208,7	101,9

Toshkent	205,5	211,7	103,0
----------	-------	-------	-------

Toshkent viloyatida 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **209,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4** kishiga ortgan (2025- yil 1- aprel holatiga 1 kv.km.ga **206,2** kishi).

### Aholi zichligi (1- aprel holatiga, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)




### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **14 923** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,1** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **502** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4 226** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **354** nafarga ko'paygan.


### Tug'ilganlar va vafot etganlar soni (yanvar-mart oylarida, kishi)



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **14 923** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **7 606** kishini (*jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51 %*), qiz bolalar soni **7 317** kishini (*49 %*) hamda shahar joylarida **6 986** kishini (*46,8 %*), qishloq joylarida **7 937** kishini (*53,2 %*) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **4 226** kishini, shundan erkaklar **2 415** kishini (*jami vafot etganlar soniga nisbatan 57,1 %*), ayollar **1 811** kishini (*42,9 %*) hamda shahar joylarida **2 217** kishini (*52,5 %*), qishloq joylarida **2 009** kishini (*47,5 %*) tashkil qildi.

### Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-mart oylarida, kishi)




#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **2 780** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,6** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **223** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1 270** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,6** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **143** birlikka ko'paydi.


### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-mart oylarida, birlik)



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **2 780** birlikni, shundan shahar joylarida **1 441** birlikni (**51,8 %**), qishloq joylarida **1 339** birlikni (**48,2 %**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1 270** birlikni, shundan shahar joylarida **705** birlikni (**55,5 %**), qishloq joylarida **565** birlikni (**44,5 %**) tashkil qildi.

### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-mart oylarida, birlik)




## V. Aholi migratsiyasi

2026- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **11 486** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **11 360** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **126** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **8 278** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **7 641** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **637** kishini tashkil qildi.

**Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni  
(yanvar-mart oylarida, kishi)**



**Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi**

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>11 486</b>	<b>11 360</b>	<b>126</b>	<b>8 278</b>	<b>7 641</b>	<b>637</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	329	329		185	185	
Olmaliq	446	419	27	486	478	8
Angren	277	277		258	251	7
Bekobod	259	258	1	332	330	2
Ohangaron	224	218	6	197	196	1
Chirchiq	822	817	5	635	607	28
Yangiyo'l	492	489	3	233	232	1
<i>tumanlar:</i>						

Oqqo'rg'on	176	174	2	220	189	31
Ohangaron	341	340	1	271	266	5
Bekobod	268	267	1	271	271	
Bo'stonliq	296	296		494	370	124
Bo'ka	163	163		226	182	44
Quyichirchiq	356	327	29	321	247	74
Zangiota	1 664	1 663	1	693	679	14
Yuqorichirchiq	620	614	6	447	373	74
Qibray	1 197	1 183	14	690	671	19
Parkent	190	190		245	227	18
Piskent	232	231	1	218	210	8
O'rta Chirchiq	634	623	11	458	402	56
Chinoz	204	199	5	245	185	60
Yangiyo'l	774	761	13	619	573	46
Toshkent	1 522	1 522		534	517	17

## **VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari**

**Demografik ko'rsatkichlarni** shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.